

## **Tanlov fan. 11-sinf adabiyot. 3-BSB (25 ball)**

### **Insho**

#### **Insho yozish uchun mavzular:**

1. “Gulzor” – didaktik adabiyotning yorqin namunasi.
2. Mashrab gʻazallarida muhabbat tasviri.

#### **Insho yozish bosqichlari**

1. Qiziqishlaringiz asosida yuqoridagi mavzulardan birini tanlang.
2. Tanlagan mavzungizni chuqur oʻrganib chiqing.
3. Oʻylaringizdagi fikrlarni tartiblang (masalan, qaysi fikrimni oldin, qaysi birini oldingi fikrimdan keyin joylashtiraman... kabi).
4. Fikrlaringizni dalillash uchun koʻchirmalar yigʻing.
5. Tanlagan mavzungiz asosida puxta reja tuzing.
6. Tezis (qisqa ifoda) yozib oling.
7. Yozganlaringizni tahrirlang.
8. Oqqa koʻchiring.
9. Qayta tahrirlang.
10. Taqdim eting.

### **Baholash mezonlari (25 ball)**

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |              |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|
| Inshoni bosqichlar asosida, toʻgʻri ketma-ketlikda yozgan, fikrlarini tartib bilan ifoda etgan, mavzuga mos reja tuzgan, qarashlarini asoslab bergan, matnni tahrirlagan, shuningdek, ishni oʻz fikr-mulohazalari asosida boyitgan, gʻazallarning bugungi kundagi ahamiyatiga toʻxtalgan hamda zamon bilan bogʻlay olgan, xulosalarini aniq bayon qila olgan, imlo, tinish belgilari va husnixat talablariga amal qilgan holda yozgan boʻlsa – | 20 – 25 ball |
| Inshoni bosqichlar asosida yozgan, fikrlarini tartib bilan ifoda etishda biroz chalkashliklar kuzatilganligi sabab qarashlarini toʻliq aks ettira olmagan; ammo mavzuga mos reja tuzgan, matnni tahrirlagan, gʻazallarning bugungi kundagi ahamiyatiga toʻxtalgan hamda zamon bilan bogʻlay olgan, xulosalarini bayon qila olgan, imlo, tinish belgilari va husnixat talablariga amal qilgan holda yozgan boʻlsa –                             | 14 – 19 ball |

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------|
| <p>Inshoni yozish mobaynida bosqichlarga to‘liq amal qilmagan, shu sabab fikrlar tartibida biroz chalkashliklar kuzatilgan, reja mavzuni to‘liq ochib bera olmagan, qarashlarini qisman asoslagan, ishda o‘z fikr-mulohazalari to‘liq aks etmagan, g‘azallarning bugungi kundagi ahamiyatiga to‘xtalgan, ammo zamon bilan bog‘lay olmagan, xulosalarini bayon qila olgan, imlo, tinish belgilari va husnixat talablariga to‘liq rioya qilmagan bo‘lsa –</p> | <p>10 – 13 ball</p> |
| <p>Inshoni yozish mobaynida bosqichlarga amal qilmagan, shu sabab fikrlar tartibida chalkashliklar kuzatilgan, reja mavzuni to‘liq ochib bera olmagan, qarashlarining ayrimlari asoslangan, ayrimlari asoslanmagan, g‘azallarning bugungi kundagi ahamiyatiga to‘xtalmagan, zamon bilan bog‘lay olmagan, xulosalar ham juda jo‘n bayon qilingan bo‘lsa –</p>                                                                                                | <p>5 – 9 ball</p>   |
| <p>Inshoni yozish mobaynida bosqichlarga amal qilmagan, shu sabab fikrlari chalkash; ish rejasi izchil emas, ko‘p o‘rinlarda mavzudan chetga og‘ish kuzatilgan; qarashlarining ayrimlari asoslangan, ayrimlari asoslanmagan, g‘azallarning bugungi kundagi ahamiyatiga to‘xtalmagan, zamon bilan bog‘lay olmagan, ish xulosalanmagan bo‘lsa –</p>                                                                                                           | <p>1 – 4 ball</p>   |